

DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK ASOSIDAGI NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION IMKONIYATLARI

Meliboyeva Gulhayo Odiljon qizi

O'zbekiston Respublikasi Oriental Universiteti

Ta'lim menejmenti yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Davlat xususiy sherikchiliklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizimini takomillashtirishning innovatsion imkoniyatlari va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizimini takomillashtirishning innovatsion imkoniyatlari, tadqiqot, o'quv tarbiya, kommunikativlik, takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy-ma'naviy islohotlar, zamonaviy texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson faoliyati, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar yasamoqda. Zero, olam va insonning hayotda tutgan o'rnini to'g'risidagi tasavvurlar o'zgarmoqda, tafakkur va olamni tushunishning yangi usullari shakllanmoqda. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan, yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimiz samarasi, taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mustaqil fikrlovchi, ijodkor mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan bog'liq.

Yurtimizda yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta'lim jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Eski ijtimoiy munosabatlar shakllarining buzilishi va yangi demokratik hayot tarzining vujudga kelishi shaxsda ijodiy faollikni shakllantirishni talab qilmoqda. Rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatga ijodiy, eng avvalo, ijodiy faol, dadil, noan'anaviy va o'ziga xos tarzda fikrlashga, muammolarni samarali hal qilishga qodir bo'lgan o'zini faoliyatning har xil turlarida namoyon etuvchi ijodiy faol shaxslar kerak. Ijodiy fikrlaydigan shaxs o'ziga qo'yilgan vazifalarni tezroq va tejamkorlik bilan hal qila oladi, qiyinchiliklarni samarali yengib o'tadi, o'z oldiga yangi maqsadlar qo'ya oladi, o'zini tanlash va harakat qilish erkinligi bilan ta'minlaydi, ya'ni tashkilotchilikka ega bo'ladi, shuningdek, jamiyat tomonidan o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal etishda

eng samarali usullarni tanlay oladi. Bugungi kunda ijodiy faollik – shaxsning muhim mezoni, uning yaxlit tarzda rivojlanishi omilidir. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir bolani ijodiy faollik ruhida tarbiyalash muhim va zarur. Ijodkor, faol, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish uchun maktabgacha ta‘lim tizimida ham muhim o‘zgarishlar va qayta qurish hayotiy zarurat bo‘lib qolmoqda. Maktabga qadam qo‘yayotgan bola qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi, shu bilan bolada ijodiy faollik shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Jamiyatda yaratilgan ilg‘or tajriba va milliy an‘analardan san‘at asosan oziqlanishi tufayli yosh avlodda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishda musiqali sahnalashtirish faoliyatlarining ahamiyati nihoyatda katta. Musiqali sahnalashtirish faoliyati esa, bolalarning ongi va shuurida milliy ildizlarning tomir otishiga samarali ta‘sir ko‘rsatish xususiyatiga ega. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishda musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarining imkoniyatlari katta. Musiqali sahnalashtirish faoliyati ijtimoiy-madaniy faoliyatning bir qismi sifatida bolalarga musiqa, adabiy, badiiy asarlarni rivojlantirish orqali avlodlar aloqasini saqlab, axloqiy an‘ana va qadriyatlarni o‘zlashtirishga imkon beradi. Teatr san‘at asarlari, musiqa san‘atiga qiziqish, ijodiy jarayonga tashabbus ko‘rsatish, bolalarda ijodiy faollik sifatlarini shakllantirishga, shuningdek, shaxsning ma‘naviy shakllanishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirishiga omil bo‘ladi. Maktabgacha davrda bola shaxsida ijodiy faollik sifatlarining shakllanishi, maktab yoshidagi bolalarga qaraganda faolroq kechadi, chunki bu davr qarorlar, harakatlar, rejalarning ongli ravishda tanlanishi bilan ajralib turadi.

Maktabgacha pedagogikadagi modellashtirish usuli ijtimoiy-madaniy va pedagogik omillarni birlashtirib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarda ijodiy faollikni shakllantirish jarayonining optimal modelini yaratish imkonini beradi. Tadqiqot ishida taqdim etilgan model musiqali sahnalashtirish faoliyatlari jarayonida bolalarda ijodiy faollik sifatlarini shakllantirish jarayonlarini chuqur o‘rganish hamda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarda ijodiy faollikni shakllantirish modeli ishlab chiqildi va ta‘lim jarayonining batafsil tavsifi quyidagicha aks ettirildi.

Shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv yo‘nalishida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi, chunki bu yondashuv jarayonida shaxs subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishda refleksiv yondashuv samarali fikrlashning muhim mexanizmi sifatida yuz berayotgan

hodisani baholash, vazifalarni hal qilish usullarini izlab topish; ijodiy vazifalarni hal qilish jarayonida o'zini o'zi tahlil qilish, o'z holati hamda xatti-harakatlarini baholashni va tashqi tomondan berilgan bahoni anglashni talab etadi. Refleksiv yondashuv bilishga qiziqishning shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan komponentlari bilan o'zaro bog'liqlikda, muammoli vaziyatlarni hal qilish chog'ida yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Fikrlash jarayonida hamda xulq-atvorda bajaradigan funksiyalarining xilma-xilligi hamda xulq-atvorni va harakatlarni tartibga solishda o'ynaydigan rolning ahamiyati refleksiyaning ta'lim jarayonlarining juda kerakli unsuri deb hisoblashga asos bo'ladi. Refleksiv yondashuvning o'ziga xos jihatlaridan biri bolalarning tahliliy faoliyatini tashkil etish bo'lib, bolalar bilishga doir o'z faoliyatini tahlil qilish va obyektiv baholashga undash, tahliliy faoliyat jarayonidagi ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, obyektiv xulosalarni rag'batlantirish va rivojlantirish, amalga oshirilgan tahlillar asosida ijodiy faollikning namoyon bo'lib borishini nazarda tutadi.

Hozirgi davrda maktabgacha ta'limda ham kompetentli yondashuvga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayon ijodiy faollikni shakllantirish uchun ham konseptual asosga ega bo'lib, bilim (gnostik), ko'nikma va malakalar (faoliyatga yo'naltirilgan komponent), maktabgacha katta yoshdagi bola shaxsi xususiyatlari (shaxs komponenti)ni o'z ichiga qamrab oladi. Bilimlar – tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida inson ongidagi tizimlangan in'ikosini; ko'nikmalari – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatida aqliy jarayon bosqichlarini tez va to'laqonli amalga oshirish darajasini belgilaydi. Malakalar esa faoliyatning reproduktiv bosqichlarini qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishda kompetentli yondashuv uch jihatni o'zida aks ettirishi lozimligini ko'rsatdi: faoliyatga yo'naltirilgan, kommunikativ va shaxsiy. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv maktabgacha katta yoshdagi bolalarda bilimlar, faoliyat usullari va vositalarini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Kommunikativ jihat shaxslararo muloqotni amalga oshirishga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shaxsiy jihat ijodiy fikrlash, refleksiya, maqsadga yo'nalganlikni o'zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son Qarori. <https://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3955-sonli qarorlari
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-sonli
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori. www.lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son [farmoni](http://www.lex.uz). www.lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. www.lex.uz
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ 637-son Qonuni. www.lex.uz